

**TARBIYA FANINI MODDIY VA MA'NAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA O'QITISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19189132>

*Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasida o'qituvchisi Movlonova Odinaxon*

*Dang'ara tumani 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi Tarbiya fani o'qituvchisi*

**Bo'tayev Dilshodjon.**

**Annotatsiya**

*Maqolada Tarbiya fanini moddiy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligida o'qitishning ahamiyati va pedagogik tamoyillari tahlil qilinadi. Moddiy qadriyatlar – mehnatsevarlik, kasbiy ko'nikma va iqtisodiy tafakkur, ma'naviy qadriyatlar esa – halollik, adolat, vatanparvarlik va insonparvarlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu integratsiya yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi.*

**Kalit so'zlar:** *Tarbiya fani, moddiy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, barkamol shaxs, ijtimoiy ahamiyat, mehnatsevarlik, adolat, vatanparvarlik, axloqiy tarbiya, yosh avlod.*

**Аннотация**

*В статье анализируется значение и педагогические принципы преподавания дисциплины «Воспитание» на основе интеграции материальных и духовных ценностей. К материальным ценностям относятся трудолюбие, профессиональные навыки и экономическое мышление, тогда как духовные ценности способствуют формированию честности, справедливости, патриотизма и гуманизма. Такая интеграция позволяет воспитывать молодежь всесторонне развитыми личностями и укрепляет социальную стабильность в обществе.*

**Ключевые слова:** *Воспитание, материальные ценности, духовные ценности, всесторонне развитая личность, социальное значение, трудолюбие, справедливость, патриотизм, нравственное воспитание, молодежь.*

**Abstract**

*The article analyzes the importance and pedagogical principles of teaching the Discipline of Education based on the integration of material and spiritual values. Material values include diligence, professional skills, and economic thinking, while spiritual values contribute to the formation of honesty, justice, patriotism, and humanism. This integration enables the upbringing of young people as well-rounded individuals and strengthens social stability in society.*

**Keywords:** *Education, material values, spiritual values, well-rounded personality, social significance, diligence, justice, patriotism, moral education, youth.*

Tarbiya fani jamiyat taraqqiyotining ma'naviy poydevorini mustahkamlovchi muhim ijtimoiy-gumanitar fanlardan biridir. Uni moddiy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'qitish bugungi globallashuv sharoitida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yosh avlod qalbida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga hurmat, Vatanga sadoqat, halollik va adolat tuyg'ularini shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining ustuvor vazifalaridan sanaladi. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor Tarbiya

fanining mazmun-mohiyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z asarlarida va nutqlarida ma'naviyat va tarbiya masalasini davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ta'kidlab keladi. Xususan, "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash masalasiga alohida urg'u beriladi. Asarda ta'kidlanganidek, moddiy taraqqiyot bilan bir qatorda ma'naviy yuksalish ham uyg'un holda olib borilgandagina barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" g'oyasi ta'lim tizimini tubdan yangilash, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida tashkil etishni taqozo etadi. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, agar farzandlarimizni zamonaviy bilim va kasb-hunar bilan qurollantirish bilan birga, ularda mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirmasak, kutilgan natijaga erisha olmaymiz. Demak, Tarbiya fanini o'qitishda moddiy qadriyatlar – mehnat madaniyati, iqtisodiy tafakkur, kasbiy mas'uliyat kabi tushunchalar bilan bir qatorda, ma'naviy qadriyatlar – vatanparvarlik, milliy g'urur, bag'rikenglik, insonparvarlik kabi fazilatlarini uyg'un ravishda singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu g'oyalar Tarbiya fanini o'qitishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyat – bu, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan, inson hayoti va faoliyatida muhim o'rin tutadigan moddiy yoki ma'naviy boylikdir. Moddiy qadriyatlarga mehnat mahsuli, iqtisodiy farovonlik, ishlab chiqarish madaniyati, kasbiy mahorat, zamonaviy texnologiyalar kiradi. Ma'naviy qadriyatlar esa axloq, e'tiqod, vatanparvarlik, halollik, adolat, bag'rikenglik, milliy o'zlikni anglash kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Tarbiya fanini o'qitishda ushbu ikki yo'nalishning o'zaro uyg'unligi muhimdir. Faqat moddiy boylikka yo'naltirilgan ta'lim jamiyatda ma'naviy bo'shliqni yuzaga keltirishi mumkin. Aksincha, faqat ma'naviy tarbiyaga urg'u berib, zamonaviy iqtisodiy tafakkur va mehnat madaniyatini e'tibordan chetda qoldirish ham to'laqonli natija bermaydi. Shuning uchun Tarbiya fanining mazmuni moddiy va ma'naviy qadriyatlar integratsiyasi asosida shakllantirilishi zarur.

Qadriyat tushunchasi jamiyat hayotida muhim o'rin tutadigan, inson faoliyati va tafakkurini yo'naltiradigan mezon va tamoyillar majmuasini anglatadi. Qadriyatlar insonning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari hamda ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllanadi va avloddan-avlodga o'tib boradi. Falsafiy nuqtai nazardan, qadriyat – bu muayyan narsa, hodisa yoki g'oyaning inson va jamiyat uchun ahamiyatlilik darajasidir.

Qadriyatlar odatda ikki asosiy guruhga ajratiladi: moddiy va ma'naviy qadriyatlar. Ular bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyat hayotining yaxlit tizimini tashkil etadi.

Moddiy qadriyatlar – insonning amaliy faoliyati natijasida yaratilgan va uning turmush farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan boyliklar majmuasidir. Bunga ishlab chiqarish vositalari, uy-joy, texnika va texnologiyalar, transport, infratuzilma, moddiy ne'matlar, iqtisodiy resurslar kiradi. Moddiy qadriyatlar jamiyatning iqtisodiy asosini tashkil etadi va uning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Moddiy qadriyatlarning mohiyati shundaki, ular insonning yashashi, mehnat qilishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Masalan, zamonaviy texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishga, ishlab chiqarish samaradorligini ko'paytirishga xizmat qiladi. Mehnat mahsuli sifatida yaratilgan har qanday boylik jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Shu bois moddiy qadriyatlar mehnatsevarlik, tadbirkorlik, iqtisodiy tafakkur, mas'uliyat kabi sifatlar bilan uzviy bog'liqdir.

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

Biroq jamiyat hayoti faqat moddiy boyliklar bilan belgilanmaydi. Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan asosiy omil – bu uning ma'naviy olami, tafakkuri va axloqiy mezonlaridir. Shu jihatdan ma'naviy qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy qadriyatlar – insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari, e'tiqodi, madaniyati, ilm-fani, san'ati va an'analarini o'z ichiga oladigan tushunchadir. Ular jamiyatning ruhiy asosini tashkil etadi. Halollik, adolat, vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, milliy g'urur kabi fazilatlar ma'naviy qadriyatlarga misol bo'la oladi.

Ma'naviy qadriyatlarning mohiyati shundaki, ular insonning xulq-atvorini boshqaradi, jamiyatda ijtimoiy muvozanatni ta'minlaydi. Agar moddiy qadriyatlar tashqi farovonlikni belgilasa, ma'naviy qadriyatlar ichki barkamollikni ta'minlaydi. Ma'naviy qadriyatlar jamiyatni birlashtiradi, odamlar o'rtasida ishonch va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Ular bo'lmagan jamiyatda ma'naviy inqiroz, ijtimoiy beqarorlik yuzaga kelishi mumkin.

Moddiy va ma'naviy qadriyatlar o'zaro bir-birini to'ldiradi. Masalan, halol mehnat orqali yaratilgan moddiy boylik ma'naviy qadriyat – halollik bilan mustahkamlanadi. Yoki ilm-fan taraqqiyoti (moddiy va intellektual boylik) ma'naviy mas'uliyat bilan uyg'unlashgandagina insoniyat manfaatiga xizmat qiladi. Shu bois bu ikki yo'nalishni qarama-qarshi qo'yish emas, balki ularning uyg'unligini ta'minlash muhimdir.

Tarbiya jarayonida ham ushbu uyg'unlik alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga nafaqat moddiy boylik yaratish ko'nikmalarini, balki ulardan oqilona va adolatli foydalanish madaniyatini ham singdirish zarur. Ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan shaxs moddiy boylikka vosita sifatida qaraydi, uni maqsad darajasiga ko'tarmaydi.

Moddiy qadriyatlar jamiyatning iqtisodiy poydevorini, ma'naviy qadriyatlar esa uning ruhiy-ma'rifiy asosini tashkil etadi. Ularning o'zaro uyg'unligi barqaror taraqqiyot va barkamol insonni shakllantirishning eng muhim shartidir.

Tarbiya fanining mazmuni moddiy va ma'naviy qadriyatlar integratsiyasi asosida shakllantirilishi zarur, chunki zamonaviy jamiyatda barkamol shaxsni tarbiyalash faqat bir yo'nalishdagi yondashuv bilan cheklanib qolmaydi. Inson nafaqat iqtisodiy jihatdan faol va kasbiy jihatdan yetuk bo'lishi, balki yuksak axloqiy fazilatlar, mustahkam e'tiqod va ijtimoiy mas'uliyatga ham ega bo'lishi lozim. Shu bois Tarbiya fanining mazmuni moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'zaro uyg'un holda qamrab olishi pedagogik zarurat hisoblanadi.

Moddiy qadriyatlar integratsiyasi deganda o'quvchilarda mehnatga hurmat, iqtisodiy tafakkur, kasb tanlash madaniyati, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish tushuniladi. Tarbiya fanida mehnatsevarlik, mas'uliyat, tadbirkorlik, tejamkorlik kabi tushunchalarni yoritish orqali o'quvchilarda hayotiy amaliy ko'nikmalar rivojlantiriladi. Bu esa ularni mustaqil hayotga tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviy qadriyatlar integratsiyasi esa o'quvchilarda halollik, adolat, vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Tarbiya fanida milliy an'ana va urf-odatlar, tarixiy meros, buyuk ajdodlarimizning ibratli hayoti, umuminsoniy axloqiy tamoyillar keng yoritilishi lozim. Bu orqali o'quvchilar o'zligini anglaydi, jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qiladi va mustahkam ma'naviy pozitsiyaga ega bo'ladi.

Moddiy va ma'naviy qadriyatlar integratsiyasi dars jarayonida mazmuniy va metodik uyg'unlikni talab etadi. Masalan, mehnatning qadri haqida so'z yuritar ekanmiz, faqat iqtisodiy foyda emas, balki halol mehnatning ma'naviy ahamiyati ham ochib berilishi kerak. Yoki tadbirkorlik mavzusida nafaqat daromad olish, balki ijtimoiy mas'uliyat, adolatli raqobat va jamiyat manfaatiga

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

xizmat qilish masalalari ham muhokama etilishi zarur. Shundagina ta'lim jarayoni biryoqlama emas, balki kompleks va tizimli xarakter kasb etadi.

Tarbiya fanini moddiy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligida amalga oshirilgandagina samarali natija beradi. Chunki tarbiya jarayoni inson shaxsini har tomonlama shakllantirishga qaratilgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Agar ta'lim jarayonida faqat moddiy qadriyatlarga – ya'ni iqtisodiy bilim, kasbiy ko'nikma, mehnat madaniyati va texnologik savodxonlikka urg'u berilsa, o'quvchining ichki dunyosi, axloqiy mezonlari va ijtimoiy mas'uliyati yetarli darajada shakllanmay qolishi mumkin. Aksincha, faqat ma'naviy qadriyatlarga tayanib, hayotiy-amaliy ko'nikmalarni rivojlantirmaslik ham shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiladi.

Moddiy qadriyatlar yoshlarni real hayotga tayyorlaydi. Ular mehnat qilish, kasb egallash, iqtisodiy mustaqillikka erishish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish kabi amaliy jihatlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya fanida mehnatsevarlik, tadbirkorlik, tejamkorlik, mas'uliyat, vaqtni qadrlash kabi tushunchalarning yoritilishi o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu esa ularning mustaqil fikrlashi va o'z kelajagini ongli ravishda rejalashtirishiga xizmat qiladi.

Ma'naviy qadriyatlar esa insonning ichki olamini boyitadi. Halollik, adolat, vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, milliy g'urur kabi fazilatlar yosh avlodning axloqiy tayanchini mustahkamlaydi. Ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalangan shaxs moddiy boylikni maqsad emas, balki vosita sifatida qabul qiladi. U o'z bilim va imkoniyatlarini nafaqat shaxsiy manfaat, balki jamiyat ravnaqi uchun ham yo'naltira oladi.

Tarbiya fanida ushbu ikki yo'nalishning uyg'unligi o'quvchilarda muvozanatli dunyoqarashni shakllantiradi. Masalan, halol mehnat tushunchasi moddiy boylik yaratish bilan birga, ma'naviy poklikni ham ifodalaydi. Yoki tadbirkorlik mavzusi faqat daromad topish emas, balki ijtimoiy mas'uliyat va adolat tamoyillari bilan bog'lanib o'rganilganda yanada chuqur ma'no kasb etadi.

Shuningdek, moddiy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi o'quvchilarda ijtimoiy faollikni oshiradi. Ular jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, o'z fikrini erkin bildirishga, boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qilishga o'rganadi. Bunday yondashuv yoshlarni turli zararli g'oyalar va salbiy ta'sirlardan himoya qiluvchi mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantiradi.

Ma'naviy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta'lim yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qiluvchi "ma'naviy immunitet"ni shakllantiradi. Tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, axborotni tahlil qilish ko'nikmalari ma'naviy mezonlar bilan uyg'unlashganda o'quvchi salbiy g'oyalar ta'siriga tushib qolmaydi. Bu esa jamiyat xavfsizligi va ma'naviy sog'lom muhitni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tarbiya fanida ma'naviy qadriyatlar asosida o'qitish o'quvchilarning ijtimoiy faolligini ham oshiradi. Ular ko'ngillilik faoliyati, jamoat ishlarida ishtirok etish, o'z fikrini erkin ifoda etish kabi ko'nikmalarni egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, Tarbiya fanini moddiy va ma'naviy qadriyatlar ajamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etadi, o'z tashabbuslari bilan ijtimoiy hayotni boyitasosida o'qitish – yosh avlodni har tomonlama barkamol, bilimli, ma'naviyatli va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashning eng samarali yo'lidir. Moddiy qadriyatlar o'quvchilarda mehnatsevarlik, tadbirkorlik, iqtisodiy tafakkur va kasbiy mahoratni shakllantirsa, ma'naviy qadriyatlar ularda halollik, adolat, vatanparvarlik, bag'rikenglik va insonparvarlik kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Shu ikki yo'nalishning uyg'unligi Tarbiya fanining mazmunini boyitadi, darslarni hayotiy va amaliy asos bilan mustahkamlaydi.

Bunday yondashuv nafaqat o'quvchilarning bilimini oshiradi, balki ularning ijtimoiy faolligini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini va jamiyatdagi mas'uliyatli ishtirokini ta'minlaydi. Tarbiya fanining mazmuni moddiy va ma'naviy qadriyatlar integratsiyasi asosida shakllantirilganda, yoshlar turli salbiy

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

ta'sirlar va zararli g'oyalardan himoyalanaadi, milliy o'zlikni anglaydi va jamiyat hayotida ijobiy o'zgarishlar yaratishga qodir shaxsga aylanadi.

Shunday qilib, Tarbiya fanini moddiy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligida o'qitish – bu nafaqat pedagogik zarurat, balki davlat siyosati va jamiyat taraqqiyotining muhim strategik yo'nalishidir. Faqat shu yondashuv orqali ta'lim tizimi yosh avlodni bilimli, ma'naviyatli va barkamol fuqarolar qilib shakllantira oladi, jamiyatda barqaror va sog'lom ijtimoiy muhitni yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori. – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2019.
3. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.